

## SO'Z TURKUMLARI TO'G'RISIDA YANGICHA QARASHLAR

*SamDUKF Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti  
FT 21\_13-guruh II bosqich talabasi  
Xudoyberganova Asila Azizbek qizi  
Ilmiy rahbar: Djakbarova.M*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada so'zlarni so'z turkumlariga ajratish, so'z turkumlarining o'zaro farqlari, olimlarning so'z turkumlari to'g'risidagi qarashlari, so'z turkumlari haqida nazariy ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** so'z turkumlari, mustaqil so'z turkumlari, yordamchi so'z turkumlari, til, tilshunoslik, morfologiya, so'z, shakl.

### KIRISH

So'zlarning lug'aviy va grammatik ma'no jihatdan o'xshashligiga ko'ra ayrim leksik - grammatik guruhlariga ajratilish so'z turkumlari deyiladi. So'zlarni turkumlarga ajratishda ularning grammatik ma'no-lari bilan bir qatorda, lug'aviy ma'nosi ham asosiy belgilardan hisob-lanadi. Ham grammatik, ham leksik ma'nolarga ega bo'lib, gapda mustaqil sintaktik bo'lak sifatida ishtirok etadigan so'zlar mustaqil so'zlar deyiladi. Mustaqil so'zlarga: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish kiradi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, tilimizdagi ba'zi mustaqil so'zlar ham nutq jarayonida o'zining mustaqil lug'aviy ma'nosini yo'qotib, grammatik ma'no ifodalashga xoslangan holda, yordamchi so'z vazifasiga o'tishi mumkin. Bu hodisa tilshunoslikda grammatikalizatsiya deb yuritiladi. Masalan: ko'rib qolmoq, bilib olmoq, hafta ichi kabi birikmalardagi qol, ol, ich so'zlari o'zining mustaqil lug'aviy ma'nosini yo'qotgan holda yordamchi so'z sifatida qo'llangan.

Mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmaydigan, gap bo'lagi vazifasini bajara olmaydigan, biroq so'z va gaplarni o'zaro bog'lash yoki ularga qo'shimcha ma'no nozikligi kiritish (yuklash) uchun xizmat qiladigan so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi. Yordamchi so'zlar umumiy vazifalarga ko'ra uch turli bo'ladi: 1) ko'makchi; 2) bog'lovchi; 3) yuklama.

Undov, taqlid va modal so'zlar esa, yordamchi so'zlarning alohida guruhini tashkil etadi. Chunki undov va taqlid so'zlar gap bo'lagi sifatida ham, mustaqil so'z-gap sifatida ham qo'llanadi. Ayni paytda mustaqil so'zlarning yasalishida ham ishtirok eta oladi. Biroq bu so'zlar harakat va hodisaning atamasi bo'la olmasligi, ya'ni lug'aviy ma'no ifoda eta olmasligi bilan yordamchi so'zlarga o'xshashdir. Shuning uchun ham undov, taqlid, modal so'zlarning har biri o'ziga xos xususiyatlari bilan alohida - alohida turkumni tashkil etadi.

Ko‘rinadiki, so‘zlarni turkumlarga ajratishda, birinchidan, lug‘aviy ma‘no, ikkinchidan, morfologik shakl, uchinchidan, biror sintaktik vazifa bajarish xususiyati, to‘rtinchidan, qo‘llanish qurshovi (distributsiyasi) e‘tiboridan kelib chiqiladi. Shunga ko‘ra so‘zlarning hozirgi o‘zbek tilidagi turkumlari: 1) ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish kabi mustaqil so‘zlar; 2) ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kabi yordamchi so‘zlar; 3) modal so‘zlar, taqlid so‘zlar, undov so‘zlar kabi alohida yordamchi so‘zlar guruhidan iborat.

Til haqidagi fanning shakllanishi, odatda, XIX asrning boshiga to‘g‘ri keladi, deb baholanadi. Biroq, tilshunoslikning eng asosiy, tub muammosi, jumladan, so‘z turkumi va gap bo‘lagi, tilning tabiati, til belgisining ma‘noga aloqadorligi, mantiqiy, grammatik va boshqa hodisa munosabati va hatto, til, lison va nutq munosabati, tilning sistemaviy xarakteri (sistema ekanligi, yaxlit strukturadan iborat ekanligi strukturasisiz yaxlitlikning. Ya‘ni tilning o‘zi bo‘lmasligi kabi) hamda unga yondashuvda ham doimo, qadimdan boshlab sistema sifatida yo‘l tutilganligi, shuningdek, tilning kelib chiqishi masalasini ham qamrab olib baho beriladigan bo‘lsa, tilshunoslik fanining shakllanishi, albatta, uzoq tarixga egaligi ma‘lum bo‘ladi. Sharqda eramizdan oldingi davrda, ya‘ni III-II asrda Panining grammatika va grammatik kategoriyalar haqida fikr yuritganligi ma‘lumdir.

Hind tilshunosligida so‘z to‘rt guruhga ajratilgan: ot, fe‘l, ko‘makchi va yuklama. Bunda fe‘l harakatni ifodalovchi, ot esa substansiya-ifodalovchi, yuklama va ko‘makchi so‘z o‘rtasidagi munosabatni, shuningdek, insonning o‘z fikriga munosabatini ifodalovchi hodisa sifatida berilgan. Tilshunoslik tarixida so‘zga ko‘pdan-ko‘p ta‘riflar berilgan, har bir tadqiqotchi so‘zga o‘zi chuqurroq shug‘ullangan mezon nuqtai nazaridan kelib chiqib baho berishga harakat qilgan. Ammo hozirga qadar so‘zga berilgan barcha ta‘riflar, ushbu lingvistik birlikning mohiyatini to‘laligicha qamrab olgan emas. Uning atrofidagi baho va munozaralar hamon tugagan emas.

Tilshunos olim S.Usmonov so‘zga shunday ta‘rif beradi: «So‘z kollektiv a‘zolari tomonidan bir xilda talaffuz qilinib, bir xilda idrok qilinadigan hamda biron predmet, hodisani bildiradigan yo ular haqidagi tovush birikmasi sifatida shakllangan simvoldir<sup>27</sup>. Prof. Sh.Rahmatullayev so‘z haqida shunday deydi: «So‘z o‘ta murakkab hodisa sifatida talqin qilinib, ayni vaqtda ham til birligi, ham nutq birligi bo‘lishi ta‘kidlanadi. Asli til birligi bilan nutq birligining teng kelib qolishi yordamchilarda, o‘zgarmaydigan turkumlarda voqe bo‘ladi<sup>28</sup>.

Akademik A.Hojiyev shunday ta‘rif beradi. So‘z, leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko‘rinishi. O‘z tovush qobig‘iga ega bo‘lgan, ob‘yektiv narsa-hodisalar haqidagi tushunchani, ular o‘rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatlarni ifodalay oladigan. Turi grammatik ma‘no va vazifalarda qo‘llanadigan eng kichik nutq birligi<sup>29</sup>.

Tilshunos O.S.Axmanova soʻzga quyidagicha taʼrif beradi: Soʻz (glossa) ing. Word, fran. Mot, nem. Wort, isp. Palabra. 1. Voqyelikning maʼlum «sohasi» («qismi»)ning umumlashgan tarzidagi aksi sifatida fikr predmeti bilan bevosita munosabatga kirishga qodir boʻlgan va mana shu keyingisiga yoʻnalgan gapni tashkil etadigan oxirgi chegaradir. 2. 1-nci maʼnodan farqli ravishda gapning yuzaga chiqish imkoniyati boʻlgan va faqat sintaktik planda qaraladigan minimumidir<sup>30</sup>.

A.Nurmonov, Sh.Iskandarovalar tilshunoslikda soʻzning keng qamrovli, universal tushuncha ekanligini shunday ifodalaydilar: «Anʼanaga koʻra, soʻz atamasi leksik birlik boʻlgan leksemaga nisbatan ham, morfologik birlik boʻlgan soʻz shaklga nisbatan ham qoʻllaniladi. Shuning uchun ham koʻp adabiyotlarda lingvistik birlik bilan mantiqiy birlik solishtirilib, soʻzning tushuncha ifodalashi, ana shu belgisi bilan hukm ifodalovchi gapdan farqlanishi va soʻz birikmasi bilan umumiylik hosil qilishi haqida gap boradi. Bunday holatlarda, tabiiyki, leksik birlik sanaluvchi leksema maʼnosida qoʻllangan soʻz atamasi haqida fikr yuritiladi. Odam soʻzi borliqdagi «ongli faoliyat koʻrsatish va nutqiy faoliyat ishtirokchisi boʻlish imkoniga ega boʻlgan tik gavdali jonzot» tushunchasini ifodalashi bilan birga, «bosh kelishik, birlik shakldagi ot» maʼnosidir. Hozirgi tilshunoslikda birinchisi uchun leksema, leksik morfema. Ikkinchisi uchun ega soʻz shakl atamalaridan foydalaniladi»<sup>31</sup>. Tabiiyki, tilning asosiy materiali soʻz boʻlib, u turli maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladi. soʻz orqali turmushning turli tomonlari, kishilik jamiyatining, insonning turmush tajribalari aks ettiriladi. Har bir soʻzning ikki tomoni bordir: ichki tomoni va tashqi tomoni. Har bir soʻz shu ikki tomonning birligidan iboratdir. Demak, soʻz-nutqning mustaqil boʻlagi, u maʼno va shakllanish jihatidan bir butunlikka egadir; soʻz semantik va grammatik butunlikdan iboratdir.

Yuqorida taʼkidlanganidek qadim davrlardan buyon soʻz va soʻzlarni guruhlariga ajratish doimo olimlarning diqqat markazida boʻlib kelgan. Faylasuf Platon til yoki nutqni ikki qismga-ot (opota) va feʼlga (tema) ajratib, bir nima tasdiqlanadigan soʻz ot deb hisoblanadi. Ega vazifasida qoʻllangan soʻz ot hisoblangan. Feʼl esa ot haqida nima tasdiqlanishini anglatadigan soʻzdir. Feʼl deb aslida kesimga aytilgan. Bu prinsipga koʻra kesim vazifasida qoʻllangan sifat ham feʼl hisoblanadi. Demak, soʻzlarni ot va feʼlga ajratish aslida mantiqiy va sintaktik prinsipga asoslangan.

Aristotel soʻzlarni uch sinfga ajratadi. Bular: ot (lat. nomen), feʼl (lat. Verbum-lugʻaviy maʼnosi, aslida, «Bayon qilish», «fikr», «mulohaza», keyinchalik mantiqiy kategoriya boʻlgan «predikat», nihoyat, «feʼl») va bogʻlovchi hamda yuklama (lat. conjunction). Soʻngi gruppaga olmoshlar, artikllar ham kiradi. Aristotel nutqning yuqorida koʻrsatilgan tarkibiy qismlarini taʼriflashda morfologiyaga tomon siljiydi. Masaan, otga nimanidir ataydigan (nomlaydigan) soʻz, feʼlga nimanidir atabgina qolmay, uning zamonini ham koʻrsatadigan soʻz deb, bogʻlovchi va yuklamalarga esa nomlash vazifasini bajarmay, otlar va feʼllar yonida qoʻllanadigan soʻz deb izoh beradi.

Bu klassifikatsiya keyinchalik arab filologiyasiga ham ta'sir ko'rsatdi. Kelishik haqidagi dastlabki fikrni biz Aristotelda ko'ramiz. U turlanish, juslanish va so'z yasash formalarini kelishik (gr.Ptosiv-tushish) deb nomlagan. Uningcha, kishi-kishilar, yurdi va yur kabilar turli kelishiklardir. Platon ham Aristotel ham nutqning besh qismini – fe'l, bog'lovchi, artikl, atoqli otlar, nihoyat, turdosh otlarni ajratganlar.

Ispaniyaning Andaluziya viloyatidagi Grenada shahrida tug'ilib, Misrda yashagan, aslida esa, Afrikaning berber qabilasiga mansub bo'lgan Asiruddin Abu Hayyon al Andalusiy (1256-1344) o'zining «Kitob al idrok» (Turklar tilini tushunish kitobi)ning morfologiya qismida so'zlar uch turkumga ajratadi: ot, fe'l, yordamchi so'zlar.

Yuqorida ta'kidlanganidek grammatika, xususan morfologiyaga qiziqish doimo olimlarning diqqat markazida bo'lib kelganligini ko'rish mumkin. XVIII asrda diqqatga sazovor bo'lgan «Sangloh» asaridir. Bu asar Eron shohi Nodir shohning kotibi astrobodlik Mirzo Mehdixon (Nizomiddin Muhammad Hodi al Husayni as Safavy) tomonidan yozilgan bo'lib, unda morfologiyaga oid mukammal xulosalar berilgan. Mehdixon o'z asarini o'zbek tilining birinchi ilmiy grammatikasi deb ataydi. Mehdixon o'zining ushbu asarida kelishik affikslarini arabcha termin bilan ravobiti ta'diya deb ataydi.

So'z turkumlarini tasnif etishda A.A.Shaxmatov so'z formalariga asoslanish prinsipidan chetga chiqib, faqat ularning semantik xususiyatlariga tayanib ish ko'radi. U so'zlarni turkumlarga mana shunday ajratadi:

- a) mustaqil ma'noli so'zlar: ot, fe'l, sifat, ravish;
- b) mustaqil ma'nosi bo'lmagan so'zlar: olmosh, son, olmoshdan tug'ilgan ravishlar;
- v) yordamchi so'zlar: old ko'makchi, bog'lovchi, prefiks, yuklama;
- g) nihoyat, so'zlarning ekvivalenti bo'lgan undovlar.

Ot, sifat, fe'l, olmosh, son turkumlarini o'zgaradigan so'zlar deb, formal so'zlar, ravishlar va undovlarni o'zgarmaydigan so'zlar deb ataydi. A.A.Shaxmatov morfologiyani, bir tomondan, umuman so'z turkumlari kategoriyalari haqidagi ta'limot deb tushuncha, ikkinchi tomondan, o'zgaradigan so'zlarning grammatik formalari haqidagi ta'limot deb tushunadi. U so'z formalarini o'zgaradigan so'zlardagina mavjud deb biladi.

So'zning grammatik formasiga A.A.Shaxmatov tubandagilarni kiritadiotlarning songa ko'ra o'zgarishi va kelishiklar bilan turlanishi; sifatlarning grammatik jinsi, soni, kelishiklar bilan turlanishi, shuningdek, sifat darajalari; olmoshlardagi shaxs-son va grammatik jinsiga ko'ra o'zgarish; fe'llardagi shaxs va son, zamon, mayl, nisbat (zalog), vid, shuningdek, infinitiv, sifatdosh, ravishdoshga ko'ra o'zgarishlar.

A.A.Shaxmatov so'z turkumlarini sintaksisga ko'chirib, morfologiyaga so'z formalarinigina qoldiradi<sup>36</sup>.

Hozirga qadar soʻz turkumlarining soni haqida olimlar oʻrtasida hamon turli fikrlar mavjud. Masalan, hozirgi zamon rus tilida oʻrta, un ikkita, hatto oʻn beshta soʻz turkumi bor, degan fikrlar oʻrtaga tashlangan.

Agar ruscha soʻzini biz ot desak:

- a) maʼno nuqtai nazaridan u narsani anglatadi;
- b) grammatik forma nuqtai nazaridan birlik va koʻplik koʻrsatkichiga ega, kelishiklar bilan turlanadi, jins koʻrsatkichi bor;
- v) maʼlum sintaktik vazifalarni bajaradi;
- g) sifat, feʼl va boshqa soʻz turkumlari bilan aloqaga kirishadi, bu nuqtai nazardan vozmojno, veroyatno soʻzlarini hozirda amalda boʻlgan 10 turkumdan birortasiga kiritib boʻlmaydi. Shuning uchun baʼzi olimlar ularni alohida turkum deb bilishni tavsiya qiladilar. Bu soʻzlar morfologik nuqtai nazardan ravishga oʻxshasa ham, gapda ravishlar bajargan vazifani bajarmaydi, yaʼni hol boʻlib kelmaydi. Ular soʻzlovchining gapdan anglatilgan majmuiga munosabatini koʻrsatadi. Bu xususiyatiga koʻra mazkur soʻzlar modal soʻzlar nomini olgan. Stydno, jal kabi soʻzlar ham oʻziga xos xususiyatga ega. Ular ravishni eslatsa-da, gapdagi vazifalariga koʻra, ravishdan tubdan farq qiladi, ikkinchidan, gapda kesim vazifasini oʻtaydi va bu xususiyati bilan feʼlga oʻxshaydi. Ammo feʼlning boshqa xususiyatlarini aks ettirmaydi. Ana shu sabablarga koʻra ularni holat kategoriyasi deyilishi turkumga kiritishadi.

Tilshunos tadqiqotchi A.Pardayev soʻzlarni toʻrt struktural-semantik tipga boʻlinish tamoyillariga asoslangan F.Gʻ.Isxokovning qarashlarini eʼtirof etib, uning tasnifini keltiriladi.

Mustaqil soʻzlar.

Yordamchi soʻzlar.

Modal soʻzlar va yuklamalar.

Undov va taqlidiy soʻzlar.

A.Pardayev internet maʼlumotlari asosida quyidagilarni keltiradi:

1997 yilda Ros FA tilshunoslik instituti tomonidan tayyorlangan «Dunyo tillari» koʻp tomli ensiklopediyasining turkiy tillarga bagʻishlangan seriyasida berilgan yetakchi turkologlar maqolalari orqali ayrim turkiy tillarda bugungi kunda amalda boʻlgan soʻz turkumlarining qisqacha taʼrifi quyidagicha:

Ozarbayjon tilida: 1) mustaqil soʻzlar (ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish);

2) yordamchi soʻzlar (koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, modal soʻzlar); 3) undov soʻzlar.

Qozoq tilida: ot, sifat, son, olmosh, ravish, feʼl, taqlid soʻzlar. Undov soʻzlar, yordamchi soʻzlar.

Qoraqalpoq tilida: 1. Mustaqil soʻz turkumlari: 1) ism (ot, sifat, ravish, son, olmosh); 2) feʼl. 2. Yordamchi soʻz turkumlari (yuklama, koʻmakchi, bogʻlovchi). 3. Undov soʻzlar.

Qorachoy-balqar tilida: 1) Mustaqil soʻz turkumlari: ot, sifat, son, olmosh, feʻl, ravish; 2) Yordamchilar (koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama); 3) Modal soʻzlar; 4) Undov va tovushga taqlid soʻzlar.

Qirgʻiz tilida: mustaqil soʻzlar (ot, sifat, son, olmosh, feʻl, taqlid soʻzlar, ravish, undosh soʻzlar); va yordamchi soʻzlar (bogʻlovchilar, koʻmakchilar, yuklamalar va modal soʻzlar).

Qrim-tatar tilida: ot, sifat, son, olmosh, feʻl, ravish, koʻmakchi, yordamchi otlar, yuklamalar, bogʻlovchilar, undov soʻzlar, taqlid soʻzlar.

Qoʻmiq tilida: ot, sifat, son, olmosh. Ravish, feʻl, koʻmakchi. Yuklama, undovlar.

Nogʻay tilida: 1) ism (ot, sifat, ravish, son, undov, olmosh); 2) feʻllar; 3) Yordamchi soʻz turkumlari (koʻmakchilar, bogʻlovchilar, yuklamalar).

Solor tilida: ot, sifat, son, olmosh, feʻl, ravish predikativlar, koʻmakchilar, yuklamalar, bogʻlovchilar, undov soʻzlar, mimemalar.

Tatar tilida: 1) tushuncha ifodalovchi soʻzlar: ot, sifat, son, olmosh, feʻlo, ravish, predikativ soʻzlar va tovushga taqlid soʻzlar; 2) soʻzlovchining borliqqa munosabatini ifodalovchi soʻzlar (modal soʻzlar, undov soʻzlar, yuklamalar); 3) soʻzlar oʻrtasidagi aloqani bajaruvchi soʻzlar (koʻmakchilar, bogʻlovchilar, bogʻlovchi soʻzlar).

Turk tilida: 1) Mustaqil soʻz turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fel, ravish, imitativ, undovlar); 2) Nomustaqil soʻz turkumlari (koʻmakchilar, bogʻlovchi, yuklama, modal soʻzlar).

Turkman tilida: ot, sifat, son, olmosh, feʻl, ravish, koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, undov soʻzlar.

Uygʻur tilida: ot, sifat, son, olmosh, feʻl, ravish, koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, modal soʻzlar undov soʻzlar, taqlid soʻzlar.

Boshqird tilida: ot, olmosh, son, sifat, ravish, feʻl, taqlid soʻzlar, modal soʻzlar. Undov soʻzlar, koʻmakchilar, bogʻlovchilar, yuklamalar.

Oʻzbek tilida: ot, sifat, son, olmosh, feʻl, ravish, koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, modal soʻzlar, undov soʻzlar, taqlid soʻz.

Tilshunos olim H.Neʻmatov soʻz turkumlarining semantik, morfologik va sintaktik jihatlari bir-biridan kelib chiqmasligini va birlik hosil qilmasligini taʻkidlab, bu xususiyatlarning har biri alohida olingandagina soʻz turkumining tekshiruv asosi boʻlishi mumkinligini taʻkidlaydi.

Prof. H.Neʻmatovning ushbu tavsiyasi garchi soʻzlarni qoldiqsiz tamoyilga asoslangan boʻlsa-da, bu oʻzbek tilshunosligida oʻz aksini toʻlaligicha qoplamaganligi eʻtirof etilmoqda.

Soʻz turkumlarini semantik, sintaktik, morfologik tamoyilga koʻra tasnif qilishda ayrim oʻrinlarda zoʻrma-zoʻrakilik bilan ajratilgani yoki soʻzlar majburan bir turkum doirasiga kiritilgani nafaqat oʻzbek tilshunosligida, balki jahon tilshunosligida ham uchrashini kuzatish mumkin. Bu holatni V.G.Gyotening quyidagi fikri bilan izohlaydi:

«Tasnifning qaysi turi qanday tasnif etilmasin, birorta ham turkumga kirmaydigan elementlar doimo topilib turadi. Masalan, voice va voila soʻzlari oʻz belgi-xossalariga koʻra, birorta soʻz turkumiga ham kiritilmasligi mumkin. Ammo ikki soʻz uchun alohida turkum yasash amaliy jihatdan maqsadga muvofiq boʻlmaganligi sababli ularni boshqa-boshqa turkumlarga kiritadilar.

Anʼanaga kirib qolgan uchta semantik, sintaktik, morfologik tasnif mezonlarini tahlil etish shuni koʻrsatadiki, ularni ayrim-ayrim holda ham, birgalikda ham qoʻllash yetarlicha natija bermaydi va soʻz turkumlarining ontologiyasini ochib berishda yetarli emas», deydi Z.Isoqov.

XX asrning 70-yillariga kelib oʻzbek tilshunosligida sistem-struktur tilshunoslik gʻoyalari keng targʻib qilina boshlandi. Til faktlariga sistemaviy-struktural tahlil metodlari asosida yondashila boshlagandan soʻng soʻz va uni turkumlash borasida ham yangicha qarashlar yuzaga keldi.

Sistem tilshunoslik metod va usullari soʻz turkumlarini tasnif etish mezonlarini, belgilashda yangi imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Soʻz turkumlarining sistem-paradigmatik xarakteri, ularning til sathlari «chorrahasi»da joylashgan kategoriya ekanligidan kelib chiqib oʻrganila boshlandi.

Sistem-struktur yoʻnalish soʻz turkumlari nazariyasi mohiyatini yana chuqurlashtirdi. U oraliq uchinchi qonuni asosida soʻz turkumlarini ikki aʼzoli emas, balki uch aʼzo bilan tasnif qilishga oʻtdi. Bu soʻz turkumlari sistemasining yaxlitligini isbotlashga asos boʻldi. Natijada oʻzbek tilshunosligida soʻz turkumlari tasnifiga dialektik mantiq nuqtai nazaridan substansial yondashilib, uni xilma-xil va belgi xususiyatlar majmui sifatida talqin etish ommalashdi. Soʻz serqirra hodisa sifatida qaralib, soʻz turkumi tasnifining mantiqiy lisoniy mezonlarini aniqlashga imkon yaratadi. Shuni alohida taʼkidlash lozimki, oʻzbek tilshunosligida soʻz turkumlarini sistem tahlil qilishga oid dastlabki asosli fikrlar A.Nurmonov, R.Rasulovlar tomonidan amalga oshirildi. A.Nurmonov «Oʻzbek tilining nazariy grammatikasida» ... Adabiyotlarda soʻzlarning mustaqil va yordamchilarga ajratilishi asosiy tamoyillari sifatida tushuncha ifodalash, shakliy yaxlitlik, fonetik bir butunlik belgilari koʻrsatiladi. Agar bu belgilarga jiddiy eʼtibor beradigan boʻlsak, ularning hammasi mustaqil soʻzlarni ajratishga yordam beradi. Morfologik soʻz sifatida mustaqil soʻzlargina eʼtirof etiladi va ular obyektiv borliq uzvlarini ong orqali ifodalash nuqtai nazaridan otlar va feʼllarga boʻlinadi. Otlar borliqdagi narsa va hodisalarning nomlari, feʼllar esa harakat holatlarning nomlaridir.

**XULOSA.** Soʻz turkumlariga oid qarashlar har bir davrda turlicha boʻlgan. Keyinchalik soʻz turkumlari toʻgʻrisidagi yangicha qarashlar paydo boʻlgan. Ularning ichidan eng muqobillari tanlab olingan va soʻz turkumlari endilikda mustaqil, yordamchi va oraliqdagi soʻz turkumlariga ajratiladi. Buni barcha qoʻllanmalarda uchratishimiz mumkin.

## ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov X., Rafiyev M., Shodmonqulov D. O'zbek tilining amaliy grammatikasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1993 yil.
2. A'zamov S. Maktab grammatikasi va ilmiy grammatika xususida. "Til va adabiyot ta'limi", 1992 yil, 2-son, 32-33-bet.
3. Shamsiyeva M. "So'z turkumlarini sintaksis asosida o'rgatish". Ilmiy ishlar tuplami. TDPI., 1991 yil, 18-31-betlar.
4. G'ulomov A., Ne'matov X. Ona tilidan ta'lim mazmunini yangilashning asosiy yo'nalishlari. Metodik qo'llanma. T, 1992 yil.
5. G'ulomov A. Ona tili o'qitish jarayonida o'quvchilarning o'quv-bilim faoliyatlarini aktivlashtirish. ADD., Toshkent, 1991 yil.
6. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2006 yil
7. I.Holmurodov. Ona tili fani bo'yicha o'quvchilarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2006 yil, 2-son, 6-9-betlar.
8. M.Ahmedova. O'zbek tilini o'qitishda kompyuterdan foydalanish. «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 2006 yil, 2-son, 73-75-betlar.
9. N.Maxmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov. V.Qodirov, Z.Jo'raboyeva, G.Ziyodullayeva. Ona tili. 5-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. "Tafakkur" nashriyoti, Toshkent, 2011 yil.
10. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akadem nashr., 2010. – 112 bet.